

Keksa yoshdagi yo'lovchilar uchun aviachiptalariga 25% chegirma

2022 7 November

Noyabr oyi “Keksalar turizmi oyi” hisoblanadi va shu munosabat bilan Uzbekistan Airways ekonom-klass (K-klass va undan yuqori) tariflariga 25% chegirmalarni taqdim etadi. Chegirma 60 yoshdan oshgan erkaklar hamda 55 yoshdan yuqori ayollar uchun 2022-yilning 1-noyabridan 30-noyabrigacha amalga oshiriladigan mahalliy parvozlarda amal qiladi. Aviachipta xarid qilish jarayonida yoningizda albatta pasport yoki ID-karta bo'lishi lozim.

Chegirma “Uzbekistan Airways Sales” filialida yoki aviakompaniyaning O'zbekistondagi agentlari tomonidan taqdim etiladi.